

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 181 859,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 9,3 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 111,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 17,1 % ga yetdi.

## 2023- yilda Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>149 646,2</b>	<b>181 859,6</b>	<b>109,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	135 056,2	164 999,5	109,2
mahsulotlarga sof soliqlar	14 590,0	16 860,1	110,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>135 056,2</b>	<b>164 999,5</b>	<b>109,2</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>57 103,5</b>	<b>64 512,5</b>	<b>104,6</b>
sanoat	43 638,1	49 480,9	105,7
qurilish	13 465,4	15 031,6	101,1
<b>xizmatlar</b>	<b>77 952,7</b>	<b>100 487,0</b>	<b>112,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	21 338,5	27 751,3	112,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	18 671,6	25 338,3	121,9
boshqa xizmat tarmoqlari	37 942,6	47 397,4	108,2



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 60 648,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,1 % ga yuqoridir.

### Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



### Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	90,3	90,7
mahsulotlarga sof soliqlar	9,7	9,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>42,3</b>	<b>39,1</b>
sanoat	32,3	30,0
qurilish	10,0	9,1
<b>xizmatlar</b>	<b>57,7</b>	<b>60,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,8	16,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	13,8	15,4
boshqa xizmat tarmoqlari	28,1	28,7




2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 90,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog‘ining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 30,0% ni, qurilish 9,1 % ni va xizmatlar sohasi 60,9 % ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



2023- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2022- yilda – 2,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,1 f.p. (2022- yilda – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 6,5 f.p. (2022- yilda – 5,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,0 f.p. (2022- yilda – 1,1 f.p.) ga ko'paydi

## 2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2023- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 105,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 30,0%), qurilishda – 101,1% (9,1 %), xizmatlar sohasida – 112,6% ni (60,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,2 % (16,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 121,9 % (15,4%), boshqa xizmat tarmoqlarida 108,2 % dan (28,7 %) iborat bo'ldi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutloq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 111,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda 110,5 % da va xizmatlarda – 114,5 % qayd etildi.

**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)**



2023- yilda kichik tadbirkorlik 82 101,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2022- yilda – 66 451,4 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 49,8 % ni (2022- yilda – 49,2 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

## Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2022- yil

66 451,4

49,2 %

2023- yil

82 101,7

49,8 %

